



The role of Oguz and Dasht-i Kipchak tribes in the history of Khorazmshahs

Sanjar BEKMURADOV¹, Gulkhayo MUKHTAROVA²

Tashkent of Applied Sciences

ARTICLE INFO

Article history:

Received April 2024
Received in revised form
15 May 2024
Accepted 25 May 2024
Available online
15 June 2024

Keywords:

Oghuz,
Kipchak,
Terken-khatun,
Qutb ad-Din Muhammad
Khorezmshah,
Kerlik Khan,
Ancient Guzja,
Mahmud-toy,
Nasir ad-Din,
Genghis Khan,
Majid ad-Din Baghdadi.

ABSTRACT

The history of Anushteginids, who ruled under the name of the State of Khorezmshahs from the end of XII to the beginning of XIII century, is considered one of the most important dynasties not only in the history of Uzbekistan but also in World History. Today there are many studies on this dynasty's social, political, and cultural life. However, in most cases, some of the problems are not solved.

This article is devoted to the analysis of the Oghuz and Dasht-i Kipchak ("Steppe of the Kipchaks") tribal confederations, which played an important role in the history of Central Asia, and their significance in the history of Khorezmshahs. The article will examine the processes in the internal politics of the state of the ruling Anushteginid Khorezmshahs in the first quarter of the 13th century, including the rivalry of state officials belonging to the Kipchak and Oghuz clans, the processes of tension between Terken-Khatun and Mohammed Khorezmshah. The factors that forced Khorezmshah to leave his country during the Mongol invasion and their reasons will also be considered.

The data has been analyzed and conclusions drawn based on oriental sources and some modern literature on the period of the object of study.

2181-1415/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol5-iss5/S-pp108-118>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

¹ Senior Lecturer, History Department University, Tashkent of Applied Sciences. E-mail: stb.uz.com@gmail.com

² Student, University of Tashkent of Applied Sciences.

O'g'uz va Dashti Qipchoq urug'larining Xorazmshohlar davlati tarixidagi ro'li

Kalit so'zlar:

O'g'uz,
Qipchoq,
Turkon Xotun,
Qutbiddin Muhammad
Xorazmshoh,
Kezlikxon,
Qadimgi G'uziya,
Mahmud-toy,
Nosir ad-Din,
Chingizxon,
Majid ad-Din Bag'dodiy.

ANNOTATSIYA

XII asr oxiri XIII asr boshlarida Xorazmshohlar nomi ostida hukmronlik qilgan Anushteginlar davlati tarixi nafaqat O'zbekiston qolaversa dunyo tarixida ham katta ahamiyatga ega sulolalardan hisoblanadi. Bugungi kunda mazkur sulolaning ijtimoiy, siyosiy va madaniy hayoti haqida ko'plab tadqiqotlar olib borilmoqda. Biroq aksariyat holda undagi ayrim masalalar o'z yechimini topmay qolgan holatlar ham kuzatiladi.

Mazkur maqola aynan Markaziy Osiyo tarixida katta ro'l o'ynagan o'g'uz hamda dashti qipchoq urug'lari haqida hamda ularning xorazmshohlar davlati tarixidagi ahamiyati xususidagi tahlillarga qaratilgan. Unda XIII asrning birinchi choragida, hukmronlik qilgan Anushtegin Xorazmshohlar davlatining ichki siyosatidagi jarayonlar jumladan, Qipchoq va Og'uz urug'lariga mansub bo'lgan davlat amaldorlarining o'zaro raqobati, Turkon Xotun va Muhammad Xorazmshoh o'rtasidagi munosabatlarning keskinlashuv jarayonlari, shu bilan birga Xorazmshohning mo'g'ullar bosqini davrida o'z yurtini tashlab ketishiga majbur qilgan omillar hamda ularning sabablari yana bir bor ko'rib chiqiladi.

Ma'lumotlar tahlili tadqiqot ob'yekti davriga doir sharq manbalari hamda bir qator zamonaviy adabiyotlar asosida amalga oshirilgan va xulosalar qilingan.

Роль племен Огузов и Дашт-и-Кипчак в истории Хорезмшахов

Ключевые слова:

Огузы,
Кипчаки,
Теркен-хатун,
Кутб ад-Дин Мухаммед
Хорезмшах,
Кезлик-хан,
Древняя Гузия,
Махмуд-той,
Насир ад-Дин,
Чингисхан,
Маджид ад-Дин Багдади.

АННОТАЦИЯ

История Ануштегинидов, правивших под именем государства Хорезмшахов с конца XII по начало XIII века, считается одной из важнейших династий не только в истории Узбекистана, но и во всемирной истории. Сегодня существует множество исследований, посвященных общественно-политической и культурной жизни этой династии. Однако в большинстве случаев некоторые проблемы остаются нерешенными.

Данная статья посвящена анализу огузских и Дашт-и-Кипчакских (Кипчакских степных) родов, сыгравших важную роль в истории Центральной Азии, и их значению в истории Хорезмшахов. В статье рассматриваются процессы во внутренней политике государства правящих ануштегинидских хорезмшахов в первой четверти XIII века, включая соперничество государственных чиновников, принадлежащих к кипчакским и огузским родам, и напряженность между Теркен-хатун и Мухаммедом Хорезмшахом. Также будут рассмотрены факторы, вынудившие Хорезмшаха покинуть свою страну во время монгольского нашествия, и причины этого.

Полученные данные проанализированы и сделаны выводы на основе восточных источников и ряда современной литературы по периоду объекта исследования.

KIRISH

Qadim zamonlardan sivilizatsiya o'choqlaridan biri bo'lgan Xorazm tarixi bilan nafaqat mamlakatimiz balki dunyo tarixchilari tomonidan qiziqish bildirilib kelingan va ushbu haqida qator yirik ilmiy tadqiqotlar yaratilgan. Biroq tadqiqotimizdan o'rin olgan Xorazmning o'rta asrlar tarixi fanda kam o'rganilgani bilan muammolidir. Vaholangki, Markaziy Osiyo tarixida xususan, o'rta asrlarda dunyo ahamiyatiga molik bo'lgan katta voqealarga boy Xorazm haqida ko'plab ma'lumotlar manbalarda aks etilganiga qaramay, undagi ba'zi voqealar jarayoni to'liq tahlil qilinmagan va o'rganilmagan. Ana shunday kam tadqiq etilgan muammolardan biri bu Anushteginlar* davlatida ichki siyosiy jarayonlar va ularning Xorazmshohlar sulolasining barxam topishi yo'lidagi masalalardir.

Bugungi kunda ko'plab tadqiqotchilar tomonidan chetlab o'tilayotgan, XII asr oxiri XIII asr boshlarida Xorazmshohlar nomi ostida hukmronlik qilgan Anushtegin Xorazmshohlar davlatining madaniy hayoti va tashqi siyosatidagi kuch qudrati o'z davri uchun namuna sifatida ko'rsatiladi. Ushbu davlatning ko'chmanchi mo'g'ullar bosqiniga bardosh bera olmasligi davlatning ichki siyosatidagi mavhum bo'lib qolayotgan muammolar va ularning sabablari, Turkon Xotun, Dashti Qipchoq va O'g'uz urug'larining Xorazmshohlar davlati tarixidagi ro'lidan voqif bo'lish uchun yana bir bor to'xtalib o'tishga undaydi. Xususan, Xorazmshohlarda muhim rol o'ynagan qipchoq urug'ining, qolaversa Turkon Xotun* obrazining saltanat tarixidagi ahamiyati alohida o'ringa ega. Birgina Anushtegin Xorazmshohlar davlatining ichki va tashqi boshqaruvida o'z o'rniga ega bo'lgan Turkon Xotun Dashti Qipchoqlarning asli qaysi urug'iga mansubligi masalasining o'zi turli baxslarga sabab bo'ladi. Zero, uning haqida manbalarda ham turli qarashlar mavjud.

Davlat boshqaruvidagi ikki hukmron urug' o'g'uz va qipchoq vakillarining bir-biriga nisbatan o'zaro ta'sir kuchi shu o'rinda, Turkon Xotun va Muhammad Xorazmshoh o'rtasidagi munosabatlarni tahlil etishda ushbu davr haqida qimmatli ma'lumotlarni beruvchi asosiy manbalar bor. Jumladan, Ibn al-Asir, Shihob ad-Din Muhammad an-Nasaviy, Alouddin Atomalik Juvayniy, Mirzo Ulug'bek, Abulg'ozir Baxodirxon asarlari va V.V. Bartold, Z.M. Buniyatov, I. Jabborov, A. Ziyo, M. Gurbuz, C. Dalay, B.G. Piter kabi zamonaviy tadqiqotlar.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Anushtegin xorazmshohlar davlatidagi yuqori qatlamlardan biri hisoblangan o'g'uzlarning etnik shakllanishi murakkab va uzoq davom etganligi bilan farqlanadi. Xitoydan to Qora dengiz bo'ylarigacha cho'zilgan hududlarda istiqomat qilib kelgan ko'chmanchi va chorvador aholi orasida o'g'uzlar ham bo'lgan. Ular tarixda *to'qug'uzlar* nomi bilan tilga olingan. VI asrning ikkinchi yarmi va VIII asrda ular Turk hoqonligi tarkibida g'arbga tomon harbiy yurishlarda faol qatnashgan. VIII asr o'rtalarida Yettisuvni tashlab Chu daryosi vodiysiga ko'chib o'tishgan. Bu yerda *"Qadimgi G'uziya"* degan qarorgoh barpo qilgan o'g'uzlar IX asr boshlariga kelib, *qarluqlar* va *kimaklar* bilan birlashib, *qang'ar-pecheneglarni* mag'lubiyatga uchratishgan. So'ng Sirdaryo va Orol

* *Anushtegin Garchoy* – 1077–1097-yillarda Xorazm hukmdori va Anushtegin xorazmshohlar sulolasi asoschisi. Rashid ad-din va Hofizi Abru qoldirgan ma'lumotlarga ko'ra, Anushtegin turkiy qavmlardan kelib chiqqan va Bekdili o'g'uz sulolasiga mansub bo'lib, yoshligida u Garjistonda qul bo'lgan, Saljuqiylar amirlaridan biri Isfahsalar Izz ad-Din Onar Bilge Tekin tomonidan sotib olingan. So'ngra xizmat yuzasidan martabasi ko'tarilib borgan va natijada sulton Malikshoh xizmatigacha yetib kelib, *"tashtdara"* lavozimiga ega bo'lgan. Ma'lum vaqtdan so'ng Anushtegin Malikshohning ishonchli insoniga aylandi. An'anaga ko'ra, tashtdara lavozimi bilan bog'liq barcha harajatlar Xorazmdan keladigan soliq tushumlari hisobidan to'langanligi sababli, Anushtegin 1077-yilda Xorazm hukmdori (mutasarrifi) etib tayinlangan.

* *Turkon Xotun* (asli Terkan *"Oliy nasabli"* *"zodagon oilaga xos"*, *"Xotun"* – malika).

bo'yini egallaganlar. O'g'uzlar Sirdaryo havzasi hamda Orol dengizi bo'yida muqum o'rnashib bu hududda IX asr oxiri X asr boshlarida *O'g'uzlar* davlatiga asos solishgan. IX asr oxirida *xazarlar* bilan *pecheneglarga* zarba berib, Ural va Volga daryolari oralig'ini ham egallaydilar. Pecheneglar bilan uzoq davom etgan urushlar o'g'uz qabilalari ittifoqini siyosiy birlashishga olib kelgan.

O'g'uzlar tarkibiga Sirdaryo vohasi Orol-Kaspiy dashtlaridagi qadimgi turklashgan etnik komponentlar, hind-yevropa va fin-ugor tillariga mansub qabilalar Yettisuv va Sibirning ko'chmanchi hamda yarim ko'chmanchi qabilalaridan *xalaj*, *jagra*, *charuk*, *qarluq*, *imur*, *bayundur*, *qay* urug'lari kirgan. O'g'uz guruhlarini dastlab Yettisuvda shakllangan, ammo ularning tarkibi g'arbga siljishi oqibatida janubiy va g'arbiy Qozog'iston hududlarining ko'chmanchi va yarim o'troq aholisi hisobiga to'ldirilgan. Ular sharqda *qarluqlar*, shimoliy-g'arbda *xazarlar*, shimoliy-sharqda *Emba daryosi** hududlari bilan chegaralangan. Sirdaryo bo'ylab Yangikent, Jand, Sig'noq kabi shaharlarga borib joylashgan. Poytaxt etib Yangikent tanlangan.

X asrda o'g'uzlar shimolda *qipchoqlardan* zarbaga uchragach, ular ikkiga bo'linib ketadi. Birinchi guruh g'arbga tomon saljuqiylar turklari nomi ostida janubiy Rossiya dashtlariga, ikkinchi guruh Movarounnahr orqali janubi-g'arbga siljib saljuqiylar boshchiligidagi Old Osiyo* mamlakatlariga istilochilik harakatlarini amalga oshirganlar.

Shu o'rinda takidlab o'tish joizki, XIII asrning birinchi choragida mo'g'ullar va Anushtegin Xorazmshohlar davlatining siyosiy maydonida muhim rol o'ynagan Dashti Qipchoqlar ham dastlab 760-yildan boshlab qadimgi *turkiy* va *runiy* bitiklarida tilga olinadi. Musulmon manbalarida esa arab geografi Ibn Xurdodbeh tomonidan "*Kitob al-masolik va-l-mamolik*" ("*Yo'llar va mamlakatlar haqida*") asarida hijriy 232/846-847-yillarda tilga olingan va VIII asrlardagi turk qabilalari ro'yxatida eslatilgan. 656-yil G'arbiy turk hoqonligi yemirilganidan so'ng qipchoqlarning katta guruhi Oltoydan Irtish bo'yigacha bo'lgan yerlarda *kimaklar* tarkibida birlashadi. Ammo VIII oxiriga kelib kimaklardan ajralib chiqib g'arbga ko'cha boshlagan. Lekin ulardan butunlay mustaqil bo'la olmay, baribir kimak hoqonligiga qaram bo'lib qoladi. Kimak hoqonligi yemirilgach qipchoqlar mustaqil bo'ladi. Ular endi O'rta Osiyo va janubi-sharqiy Yevropa bilan yaqin aloqalarga kirisha boshlaydi va XI asr ikkinchi choragidan *qipchoq* qabilalari Sirdaryo, Orolbo'yi hamda Kaspiybo'yi cho'llaridan o'g'uzlarni siqib chiqara boshlaydilar. Mintaqada etnosiyosiy vaziyat o'zgarishi bilan "*Mafazat al-g'uz*" ("*O'g'uzlar cho'li*") o'rnida Dashti Qipchoq nomi paydo bo'ladi.

Shu bilan birga Dashti qipchoq jamiyatining shakllanish jarayonini uch davrga bo'lish mumkin*. Qipchoqlarning shakllanishiga ko'plab *qang'li*, *turkiy* tilli qabilalar – *uran* (X asrda sharqiy Turkistondan kelib qolgan) *bayat*, *azkishi* va *turgashlar*, *qarluqlar*,

* *Emba* – Qozog'istondagi daryo. Ural, Sirdaryo, Ishim, Ili, Irtish va Tobol kabi suv oqimlari bilan bir qatorda eng yiriklaridan biridir. *Emba* bir vaqtning o'zida Qozog'istonning ikkita viloyatini qamrab olgan: Atirau va Aqto'be va mamlakatni Osiyo va Yevropa qismlariga ajratuvchi uning kanali hisoblanadi.

* Old Osiyo, o'lkasi Kichik Osiyo yarimoroli, Armaniston va Eron tog'liklarini o'z ichiga oladi. Bu o'lka shimolda Sharqiy Yevropa, Sharqda O'rta Osiyo, janubi sharqda Janubiy Osiyo, janubda Janubi-g'arbiy Osiyo o'lkalari bilan chegaralanadi.

* Birinchi davr – kimak qabilaviy ittifoqining tashkil topishi bilan bog'liq bo'lib, qipchoqlar ittifoq tarkibida VIII asrning ikkinchi yarmidan to VIII asr oxirigacha muhim o'rin tutgan. Ikkinchi davr – VIII asr oxiridan to XI asr boshlarigacha davom etgan. Bu davrda qipchoqlar Oltoy va Irtishdan to janubiy-ural tog'lari va Volgagacha bo'lgan hududlarga tarqalgan. Bu davrda qipchoqlar kimaklar, qumanlar bilan etno-siyosiy aloqalarga kirishgan. Qipchoq etnosi ko'plab urug' va qabilalar bilan qondoshlik orqali emas, balki hududiy xo'jalik munosabatlar prinsipida shakllangan. Uchinchi davr – XI asr oxiridan XIII asr boshlarigacha davom etib, Qipchoq xonlarining qudrati o'sib borgan, qachonki hokimiyat yelbori (sharqiy) urug'larining sulolaviy xon hokimiyati legitimatsiyasi kuzatiladi. XI–XII asrlarda qipchoq konfederatsiyasi tarkibi juda qiyin kechgan. Qipchoq jamiyatiga qipchoqlardan tashqari turkiy tilli kimaklar, qumanlar, qadimgi boshqird, o'g'uz qabilalari, hamda turkiylashgan, yoki ikki tilli eroniy tilli etnik qatlamning elementlari qo'shilgan.

chig'illar ta'sir ko'rsatgan. Qipchoqlar siyosiy qudratining o'sishi, qabilalar va etnik guruhlar qipchoqlar hukmronligining yagona etnosga bog'liq ekanligini tushinib qipchoq etnonimini qabul qilganlar. *Qipchoq ko'chmanchi bekliklari* XIII asr boshlarigacha mavjud bo'lgan, ularning xalq sifatida shakllanishining tugallanishini mo'g'ul bosqini to'xtatib qolgan.

Shu boisdan, Xorazmshohlar davlatining validasi hisoblangan Turkon Xotun dashti qipchoqlarning qaysi urug'iga mansubligi haqida manbalarda turlicha qarashlar keltirilgan. Masalan, Shihob ad-Din Muhammad an-Nasaviy *Bayot urug'ining Emek* qabilasidan ekanligini ta'kidlasa, Juvayniyda *Qang'li*, Abulg'oziyda *Qiniqli*, Juzjoniya esa *Qipchoqlardan* ekanligi haqida aytiladi. Manbalardagi bu kabi farqli ma'lumotlar mavjudligi tufayli mahalliy tadqiqotchilardan S. Ulashova o'zining izlanishlarida Turkon Xotun qipchoqlarning *Bayot* urug'idan ekanligi haqidagi fikrni ilgari surmoqda.

Ma'lumki, Turkon Xotun turk hukmdorlaridan birining hukmdori *Konkishining* qizi bo'lib, el-Arslonning o'g'li Takesh* bilan davlatning siyosiy manfaatlari yo'lida nikohlanadilar. Buning natijasida hokimiyat Muhammad Xorazmshohga Takeshdan 1220-yilda meros bo'lib o'tgach, *Emek*, *Uroniy*, *Qarluq*, *Ug'rak* va *Xalaj* kabi yirik qabilalar uning davlati tarkibiga kelib qo'shiladilar. Muhammad Xorazmshoh davrida *Dashti Qipchoq* urug'larining Anushtegin Xorazmshohlar davlatidagi ta'siri kuchayadi. Davlatning ichki va tashqi boshqaruvida foydali hamda zararli tomonlari ko'zga tashlana boshlaydi. Jumladan, 1208-yildagi Qang'li raisi* Qodirxon va Kezlikxonning ko'targan isyoni; 1218-yil Xorazmshohning qang'li-qipchoqlardan tashkil topgan qo'shini bilan Jo'ji o'rtasida jang; 1218-yildagi O'tror fojiasi va shohning bu hodisa qarshisidagi pozitsiyasi.

Albatta Takesh davrida ham Turkon Xotunning davlatdagi mavqeyi yetarlicha baland bo'lgan, biroq hali davlat ishlariga aralashish darajasida emas edi. Aynan Muhammad Xorazmshohning hukmronlik davriga kelib davlatning aksariyat amaldorlari Turkon Xotunning urug'idan ekanligi, uning Xorazmshohlar davlatidagi mavqeini yanada oshirdi. Natijada Turkon Xotun mamlakatni boshqara boshladi*. Aniqroq aytganda, uning davlat ishlariga aralashuvi Qoraxitoylar xoni Gurxon Xorazmshohlar diyoriga soliq yig'ish uchun elchi sifatida vaziri *Mahmud-Toyni** yuborganda boshlandi. Bunda Turkon Xotun paytdan foydalanib elchilarni sharaf bilan qabul qilib yaxshi kutib oladi. Ammo Juvayniyning yozishicha, *Mahmud-Toy* o'z yurtiga qaytgach, hukmdoriga Muhammad Xorazmshoh haqida salbiy fikr bildirganligini aytib o'tadi. Juvayniy elchilar bilan bo'lgan jarayonda Muhammad Xorazmshohning Qipchoq safariga tayyorgarlik ko'rayotganligi bois, elchilar bilan muzokara olib borishni o'z ixtiyori bilan Turkon Xotunga topshirganligi haqida ma'lumot beradi. Aslida

* To'liq ismi Alouddin Takesh ibn el-Arslon ibn Otsiz ibn Anushtegin (1152–1200) anushteginiylar sulolasidan bo'lgan Xorazmshohlar davlatining hukmdori (1172–1200-yil) Takesh otasi el-Arslon o'limi arafasida Jand viloyati voliyasi bo'lib turgan, shuning uchun el-Arslon kenja o'g'li Sultonshohni vali axd qilib tayinlaydi. Takesh Sultonshohni tan olmaydi va ukasi bilan 20 yil davomida taxt tuchun kurash olib boradi. Takesh 1172-yil 11-dekabrda xalqning madadi bilan rasman Xorazm taxtiga o'tirgan.

* Rais (arabcha – rahbar, sardor) – Shahar hokimi.

* Xorazmshohlar davlatining tarixida Sulton Muhammad hukmdorligi davrini o'rganar ekanmiz, unda Turkon xotunning yetakchi ro'l o'yanaganligini, uning buyruq va maslahatlari Sulton tomonidan so'zsiz bajarilganligini kuzatish mumkin. Mantiqan olib qaraganda, Turkon Xotun mamlakatda ikkinchi, ehtimol, birinchi shaxs bo'lgan deyish mumkin. Chunki, Sulton Muhammadning farmon yoki topshiriqlari onasi tomonidan muhokama qilinmasdan rad etilgan paytlar ham ko'p bo'lgan.

* Mahmud-Toy, Gurxonning bosh vaziri bo'lib, Toy-tog'a ma'nosini bildiradi.

Gurxonning maqsadi birinchidan, Xorazmshoh bilan G'ur sultoni Shihob ad-Din* o'rtasidagi jangda Xorazmshohga 10 ming askar yuborib yordam berganligi uchun unga itoat etishini, ikkinchidan, Otsiz davridan Qorqxitoylarga to'lanadigan soliqni to'lashdan Xorazmshoh bosh tortayotganligi uchun uning kuch-qudratga to'lib borishini istamasligi edi. Muhammad Xorazmshoh esa o'z davlatini Qoraxitoylar itoatidan to'laqonli mustaqil etishni va Gurxonni mag'lub etishni maqsad qilganligi bois, elchilarni Turkon Xotun ixtiyoriga topshigan edi. Nazarimizda, shu voqeadan so'ng Turkon Xotun mamlakatda ikkinchi darajali "hukmdor"ga aylana boshlagan.

Turkon Xotun bu vaqtda allaqachon Gurganjda o'z qarorgohi hamda o'z iqto* mulkiga ega edi. Mazkur mulklar nihoyatda katta bo'lib, asosan Xorazmshoh biror mamlakatni bosib olishi bilan onasi va uning atrofida qilargalarga hududlarni ajratib berishi natijasida to'plangan edi. M.Gurbuz ham Volida asosan davlatning ichki va tashqi ishlariga mas'ul bo'lib, o'ziga tegishli saroy va devoni bo'lgani haqida ta'kidlaydi. Shu tariqa asta-sekin davlatning moliya* ishlarini ham o'zi boshqara boshlagan. "Olam hukmdori" (*"Xudovand-i Jahon"*) maqomiga ega bo'lgan, Turkon Xotunning kotiblari yettita (*"Kuttab al-insho"*) bo'lgan. Farmonlari uchun shaxsiy tug'rasi bo'lib, u "Tinchlik va iymon himoyachisi, Buyuk Terken, ikki dunyo ayollarining bekasi" (*"Isnat ad-Dunya va-d Din Ulug'-Terken Malika niso al-ag'a-main"*) deb nomlangan. Uning doimiy shiori, "Men faqat Allohdan panoh tilayman" (*"i'tasamtu bi-llahi"*) naqlida bo'lgan.

Turkon Xotun saltanat hazinasini o'zi istagancha sarflash huquqiga ham ega bo'lgan. Xatto, Nasaviy orqali bizga uning tez-tez yashirin vaqtichog'lik ziyofatlarini tashkil qilganligi ham ma'lum bo'ladi. Ba'zida Xorazmshohning buyruq va farmonlari Turkon Xotun tomonidan muhokama qilinar, hatto bekor qilinib o'z kuchini yo'qotgan vaqtlari ham bo'lgan. U o'z qabilasiga mansub bo'lgan davlat amaldorlarini doim himoya qilgan va ular boshqaruvida so'z sohibi hisoblangan. Ularni "ajamiylar"* deb ham atashgan,

Turkon Xotun davlatni Xorazmshoh ortidan turib boshqarishni emas, balki ikkinchi "hukmdor" sifatidagi boshqaruvni afzal ko'rgan va bu esa davlat ichida qarama qarshi kuchlarni yuzaga keltirgan. U doim qipchoq urug'idan bo'lgan amaldorlarga suyanib ish ko'rgan. Bevosita davlatning yuqori qatlami hisoblangan shayxlarni ham o'z tarafiga og'dirishga harakat qilgan va buning uddasidan chiqqan ham. Onasining ichki siyosatdagi xatti-harakatlarini sezgan Xorazmshoh 1216-yilda u bilan til biriktirgan shayx Majid ad-Din Bag'dodiy qatl ettiradi. Majid ad-Din Bag'dodiy Kubroviya so'fiylik tariqatining asoschisi shayx Najm ad-Din Kubroning shogirdi bo'lib, onasining hiylasiga javoban qilingan bu ishi davlatdagi butun din vakillarini o'ziga qarshi qilishga qaratilgan edi. Shohning bu ish yuzasidan bergan farmoniga nisbatan o'z davri manbalari va tadqiqotchilari tomonidan turli fikrlar bildiriladi. Jumladan, Mirzo Ulug'bek Turkon Xotun o'z shayxi bilan Xorazmshohga bir kecha qasd qilganligi uchun onasiga achchiq qilib qasddan qatl ettirishga farmon berganligini aytadi. Zamonaviy tadqiqotlarda,

* G'uriylar – Suriylar xonadoniga mansub G'ur sultonlari sulolasi (1148–1206) yilgacha hukmronlik qilgan. G'uriylar sulolasining eng mashhur vakili Shihob ad-Din bo'lib, garchi 1203-yilgacha G'uriy davlatining oliy hukmdori rasman G'iyosiddin G'uriy bo'lsa-da, amalda butun hokimiyat ukasi Shihob ad-Din qo'lida bo'lgan.

* Iqto, Iqto', Iqta (arabcha) – Movarounnahr, Yaqin va O'rta sharq mamlakatlarida o'rta asrlarda hukmdor tomonidan katta xizmatlari evaziga in'om qilingan chek yer. Iqto egasi iqtodori deb atalgan.

* Moliya – markazlashgan va markazlashmagan maqsadli pul fondlarini hosil qilish, jamlash, taqsimlash va qayta taqsimlash yoki ishlatish yuzasidan paydo bo'ladigan iqtisodiy munosabatlarga aytiladi.

* Ajam – arablardan boshqa sharq xalqlarining umumiy nomi. Shuningdek, arablar yashaydigan sharq mamlakatlari, xususan, Turon, Eron ham "Mulki ajam" deb yuritilgan.

xususan V.V. Bartoldda, Turkon Xotunning o'z shayxi bilan siyosiy emas balki aynan ishqiy munosabatda bo'lganligi uchun Xorazmshoh uni o'limga buyurganligini aytib o'tadi. M.Gurbuz esa Shohning shayxda shaxsiy adovati bo'lganligi uchun o'ldirganligini ta'kidlaydi. Ma'lum bo'lganidek, Xorazmshohlar davlatining ichki siyosatida Muhammad Xorazmshoh bilan Turkon Xotun o'rtasidagi siyosiy to'qnashuv sabablaridan biri sifatida, Turkon Xotun va Majid ad-Din o'rtasidagi ishqiy munosabatlardan voqif bo'lganidan so'ng boshlanganligi haqidagi qarashlar mavjud. Ammo manbalarni o'rganish davomida, Volidaning xiyonatini aniq tasdiqlovchi dalillar uchramadi. Shu boisdan, zamonaviy tadqiqotchilar o'rtasida ushbu haqidagi fikrlar turlicha.

Fikrimizcha, bunda Turkon Xotunning asl maqsadi hokimiyatda Qipchoq urug'ining hukmronligini to'la o'rnatish bo'lgan. Shu boisdan, davlatning shayxulislomlarini shu hiyla yo'li bilan o'g'liga qarshi qilgan. Uning amaldagi harakatlari o'z natijasini ko'rsatdi ham, albatta. Buning sababini Xorazmshohning 1217-yil Bag'dodga qo'shin tortishiga shayxlar va amirlar tomonidan bo'lgan qarshiliklarda ko'rishimiz mumkin. Xususan Ibn al-Asirda bu voqealardan so'ng Muhammad Xorazmshoh bor yo'g'i 15000 otliq bilan yurish boshlaganligi aytiladi.

Muhammad Xorazmshohning Bag'dodga qo'shin tortishining sabablari ham tadqiqotchilar tomonidan turlicha baholanadi. Masalan, V.V. Bartold, Xorazmshoh Bag'dodning o'zida uning nomiga hutba o'qilishini, ya'ni xalifaning dunyoviy hokimiyatdan Xorazmshoh foydasiga voz kechishini talab qilgan. Aynan Takeshning maqsadi ham shunday bo'lgan degan fikrni bildirgan. E.V. Rtveladze esa Xorazmshoh "*Iskandar as-soniy*" ("*Ikkinchi Iskandar*") va "*Sanjar*" ("*Sulton Sanjar*") unvonlarini olganidan so'ng, u xalifalikni Bag'doddan Movarounnahrda ko'chirishga qaror qilganini va shu boisdan xalifalikka qo'shin tortganligini aytadi. Z.M. Buniyatov Xorazmshohning maqsadi, Bag'dodni egallab xalifani taxtdan ag'darish hamda davlat sarhadlarini yanada kengaytirishdan iborat bo'lgan deb ta'kidlaydi. O'z davri tarixchisi Nasaviyda esa Xorazmshoh Iroq mamlakatini to'la bo'ysundirgandan so'ng Bag'dodga yurish qilishni maqsad qilganini yozib, bu yurish sababini Shihob ad-Din as-Suhravardiyning* elchilik faoliyati muvaffaqiyatsiz yakunlanganligi va xalifadan g'azablanganligi bilan izohlaydi. Ibn al-Asir, Muhammad Xorazmshoh uning nomidan Bag'dodda va'z o'qilishini va Sultonlik unvonini olishni orzu qilgan deb takidlagan. Fikrimizcha, Xorazmshohning xalifalikka qo'shin tortishidan maqsadi asosan, Sultonlik maqomini qo'lga kiritish va Buyuk Ipak yo'lida o'z hukmronligini o'rnatish bo'lgan. Chunki, bundan avval ham Takesh huddi shunday Bag'dod halifasidan Sultonlik hutbasini olish maqsadida qo'shin tortgan edi.

Xorazmshohning Bag'dodga qilgan xarbiy yurishi muvaffaqiyatsizlikka uchragach, 1218-yil fevral oyida Nishopurga yetib keladi. So'ng darhol xalifa *an-Nosir* nomini hutbadan chiqarib tashlashni buyuradi va xalifaning vafot etganini e'lon qiladi. Marvning boshqa shaharlarida ham huddi shunday qilingan bu farmon *Balx*, *Buxoro* va *Saraxsda* ijro etilib, faqat *Xorazm*, *Samarqand* va *Xirot* bundan mustasno bo'lgan. Chunki bu shaharlar Turkon Xotunning buyrug'iga bo'ysinib, Muhammad Xorazmshohning qudrati deyarli tan olinmagan.

* Shixobiddin Abu Xafs as-Suxravardiy 1145–1234-yillarda yashagan. Bag'dod so'fiylarining boshlig'i, shayxlar shayxi bo'lib, Muhammad Xorazmshoh huzuriga elchi bo'lib kelishi va Shixobiddin as-Suxravardiyning elchilik faoliyati muvoffaqiyatsiz yakunlanganidan so'ng xalifa an-Nosir Bag'dod himoyasiga jiddiy tayyorgarlik ko'ra boshlaydi. Xorazmshohning yurishi 1217-yilning kuzida boshlanadi.

Turkon Xotun va Muhammad Xorazmshohning davlat boshqaruvidagi maqsadlarining o'zaro zidligi mamlakatda jiddiy ichki kurashlarni keltirib chiqargan. Shunday bo'lsada, Xorazmshoh onasiga kattayu-kichik ishlarda ham, jiddiy va ahamiyatsiz ishlarda ham ikki sababga ko'ra qarshi chiqmagan. Birinchidan, onaga bo'lgan muhabbat va hurmat bo'lsa, ikkinchidan, davlat amirlarining aksariyati onasining urug'iga mansubligi. Shu bois manbalarda, Xorazmshohning sobiq vaziri *Nizom al-Mulk Muhammad ibn Nizom al-Mulk Bahouddin Mas'ud al-Xaraviy* mansabidan chetlashtirilgandan so'ng Turkon Xotunning iltimosiga ko'ra, *Nizom-al-Mulk* va *Nosir ad-Din* unvonlarini olgan volidaning sobiq g'ulomining o'g'li Muhammad Solihni vazir etib tayinlaydi. Nasaviyda xatto Xorazmshoh bu lavozimga kimni qo'yish kerakligi to'g'risida onasidan maslahat so'raganligi haqida aytiladi.

Tabiiyki, Nosir ad-Din Turkon Xotunning buyrug'iga bo'ysungan. O'g'lining atrofidagi sodiq davlat vakillarini o'g'lidan uzoqlashtirish maqsadida Nosir ad-Dinning qo'li bilan Xorazmshoh va Nishopur qo'shin qozisi* Sadriddin al-Jandiy* o'rtasiga doimo nifoq solib yurgan. Sadr ad-Dinning qozilik lavozimiga qo'yilishi va ozod qilinishi o'rtasida bir kun yoki ikki kun o'tgan. Turkon Xotun va vazir tomonidan Xorazmshohga suiqasd uyushtirilgandan so'ng Xorazmshoh vaziriga: *"O'z ustozingning eshigiga yo'qol"* – deb uni onasining yoniga jo'natadi.

Nizom al-Mulkning Nishopurdan Xorazmga kelishi Volida tomonidan tantanali kutib olinib. U Xorazmda ham Xorazmshohga qarshi ishlarini davom ettiradi. Ya'ni Nosir ad-Din Karim ad-Din at-Toyfurini huzuriga chaqirib katta miqdorda pul to'lashga majbur qiladi. Karim ad-Din esa bu paytda Xorazm viloyatlaridan birida Xorazmshohning *amili** bo'lgan. Bu vaziyat yuzasidan Karim ad-Din Movarounnahrda borib Xorazmshohga Nosir ad-Din ustidan arz qiladi. Xorazmshoh esa Xorazmga Iz ad-Din Tug'ul boshchiligidagi qo'shin yuborib Nosir ad-Dinning boshini olib kelishi haqida farmon beradi. Tabiiyki, Turkon Xotunning rejasi asosida amalga oshirilayotgan bu ishlar natijasi o'laroq, Volida Nosir ad-Dinning mavqeyi va darajasini yanada mustahkamlab qo'yadi. Ya'ni, Nosir ad-Dinga Xorazm hukmdori taxtining valiaxdi, Qutb ad-Din O'zloqshohning* vaziri lavozimini topshirib uning shaxsiyatini dahlsiz qilib qo'yadi. Volida esa Nosir ad-Dinning boshini olishga kelgan Iz ad-Dinga devonxonada Xorazmshohning Nosir ad-Dinga salomini yetqazishini va uning nomidan: *"Mening sendan bo'lak vazirim yo'q. Sen o'z devoningning boshchisi bo'lib qol. Mening mulkimda hech kim sening yorliqlaringga qarshi chiqolmaydi va hukmronligingni rad eta olmaydi"* – degan so'zlarni naql ettiradi. Fikrimizcha, bu jarayonlarning natijasi o'laroq qipchoqlarning yo'l boshchisi sifatida Turkon Xotun davlatda o'z hukmronligini o'rnatishga harakat qilishi tabiiy hol edi.

* Xorazmshohlar qo'shinida ham saljuqiylardagi singari qo'shin qozisi bo'lgan. Ular qo'shin ichidagi diniy-huquqiy ziddiyatlarga barham berganlar.

* Rukniddin al-Mugisiy – Nishopur qozisi bo'ib, qo'shin qozisi esa Sadriddin al-Jandiy edi. Sadr ad-Dinning xorazmshoh bilan yaqinligi ajdodlarining hizmatlari tufayli edi. Ular Xorazmshoh Takesh Jandda paytida xizmatida bo'lgandilar. Sadr ad-Din, yuqorida ko'rsatilgan imkoniyatlardan tashqari, yaxshi notiq, tashqi ko'rinishidan olijanob odam edi.

* Amil – Voliy degani. Xorazmda u shunday nomlangan. Xorazmshohlar davlatidagi mansablar Saljuqiylarnikidan keskin farq qilgan. Amil – soliq yig'uvchi manosini bildirgan, Voliy esa Sultonning viloyatidagi hukmdori. Hukmdor bilan soliq yig'uvchi o'rtasida katta farq bor.

* Qutb ad-Din O'zloqshoh, Muhammad Xorazmshohning kenja o'g'li. Onasi bayot qabilasidan bo'lgan, Turkon Xotunning sevimli nabirasi uning istagi bilan Xorazmshoh O'zloqshohni o'ziga valiaxd qilib belgilab, Xorazm, Xuroson va Mozandaranni bergan edi. Farmonlarini tasdiqlash uchun unga laqab emas, quyidagi tarzda *"Islom amirlarining yordamchisi, Sulton Sanjarning o'g'li Sulton Abul Muzaffar O'zloqshoh"* degan nom berilgan.

Xorazmshoh Nosir ad-Dinni lavozimidan chetlashtirgandan so'ng vazirlik ishlarini bajarishni oltita vakildorga topshirgan, ammo Xorazmshohning bu tizimdagi islohoti o'z natijasini ko'rsatmagan. Chunki tashqaridan davlatga mo'g'ullarning bosqini vaqti yaqinlashib qolgan edi. Mo'g'ullar 1215-yilda Pekinni fath etganidan so'ng, Xorazmshohlar davlatini bosib olishni maqsad qiladilar. Chingizxon bu davlatni qilich bilan yenga olishi mushkul ekanligini yaxshi bilardi, shu bilan birga Xorazmshohlar davlatining ichki siyosatidagi bosh-boshdoqlikdan ham xabardor edi. Chingizxon diplomatiya yo'li bilan Xorazmshohni tuzoqqa tushirishni rejalashtirgan bu rejasi, Turkon Xotun vositachiligida amalga oshirildi. 1218-yil O'trorda yuz bergan voqea sababli, Turkon Xotun Chingizxon va Xorazmshoh o'rtasidagi aloqalarni keskinlashtirib yuborganligining oqibati Xorazmshohlar davlatining tarix sahnasidan o'chirib yuborishiga olib keldi.

Mo'g'ullar rasman Xorazmshohlar davlatiga kirib kelganidan so'ng, ichki boshqaruvda ikkiga bo'linib ketgan davlatni birlashtirib mo'g'ullarga qarshi jang qilishning iloji yo'q edi. Shu boisdan, Xorazmshoh davlatni tark etgandan so'ng, Turkon Xotun ham mo'g'ullardan qutilish uchun *Ilol** qal'asiga qochar ekan, Xorazmda asirlikda bo'lgan Qipchoq bo'lmagan urug' hukmdorlarini o'ldirishga farmon beradi. Ularning orasida *Sulton Tug'ul as-Saljuqiyning* o'g'li ham bor edi.

Juvayniyning bergan ma'lumotlariga ko'ra, mo'g'ul askarlari tomonidan asir olingan Turkon Xotun o'g'illari, qizlari va Nosir ad-Din bilan birga Toliqonda* turgan Chingizxon huzuriga olib borilgan. Hijriy 618/1221–1222-yilda uning buyrug'iga ko'ra, Nosir ad-Din qiynab o'ldirilgan, Xorazmshohning o'g'illari ham qatl ettirilgan, qizlari va singillari esa Chingizxonning o'g'illari hamda yuqori lavozimdagi amaldorlariga hadya etilib, Turkon Xotun Qoraqurumga olib ketilgan. U 630/1232–1233-yillar oralig'ida vafot etgan. Nasaviy ham Turkon Xotunning Chingizxon qo'lida kechgan asirlikdagi umrining oxirgi yillari haqida ma'lumot bergan. Yuqorida ko'rsatilgan mazkur sabablarga ko'ra, o'rta asrlarda hukmronlik qilgan buyuk Xorazmshohlar davlati shu tarzda parchalanib ketgan.

XULOSA

Anushtegin Xorazmshohlar davlatining parokanda bo'lishiga olib kelgan asosiy sabablardan biri sulola tarkibidagi urug'kashlik bo'ldi. Bunday urug'chilik munosabatlari o'z navbatida Turkon Xotun va Muhammad Xorazmshoh o'rtasidagi ochiq hamda yopiq dushmanchilikka olib keldi. Bu esa keyinchalik Turkon Xotunning dashti qipchoqlar boshlig'i sifatida davlatda mutlaq hokimiyatni qo'lga kiritish maqsadi, nafaqat Volida balki butun Qipchoq urug'iga mansub bo'lgan yuqori mansab vakillarining ham oliy maqsadiga aylanishiga olib keldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ahmadali Asqarov. O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi. – Toshkent: "Universitet", 2007. – 340 b.
2. Alimova R.R. Markaziy Osiyo xalqlari tarixi (O'rta asrlar). – Toshkent: ToshDSHI, 2013. – 180 b.
3. Bekmuradov S.T. "Al-Mulhakat Bi-S-Surah" and Translations with Notes of the Chapter about History of Mongols // International Journal of Central Asian Studies. Volume 22. 2018. – P. 171-192.

* Nasaviyda yozilishicha, *Ilol qal'asi* Sori daryosining yuqori qismida joylashgan. Juvayniyda yozilishicha, Turkon Xotun Sulton oilasining va boyliklarining bir qismini Tehron yaqinidagi Larijon qal'asiga jo'natganligi aytiladi.

* Toliqon – XII asr manbalarida Xurosonning alohida viloyati tarzida qayd etilgan va unga birqancha Shahar va qishloqlar qaragan Toliqon qal'asi o'rta asrlarda Mansurko'h yoki Nusratko'h deb nomlangan. U juda mustahkam bo'lib, XIII asrda Chingizxon qo'shinlari uni kuch bilan egallay olmay, 7 oy qamal qilib olishga majbur bo'lishgan.

4. Bekmuradov S.T. “ТАВАРИХ-И ГУЗИДА – НУСПАТНОМА” АСАРИ МАРКАЗИЙ ОСИЁ ТАРИХИ ҲАҚИДА МАЪЛУМОТ БЕРУВЧИ МАНБА СИФАТИДА // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences Volume 2, issue 8. – 2022. – P. 133-143.
5. Bekmuradov S.T. Chig'atoy ulusi boshqaruvi legitimligida islomning ahamiyati // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. Volume 9, issue 5. – 2021. – P. 708-720.
6. Bekmuradov S.T. Chig'atoy ulusida ilk boshqaruv shakli // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. Special issue 5. – 2021. – P. 249-265.
7. Bekmuradov S.T. History of the Chigatay Nation in Arabic Sources // International Journal of Trend in Scientific Research and Development (IJTSRD). – P. 56-59.
8. Bekmuradov Sandjar Tursunmamatovich, Muxtorova Gulhayo Alisher qiz, CHINGIZXON VA SULTON XORAZMSHOX MUNOSABATLARI TARIXIDAN // Educational Research in Universal Sciences. VOLUME 2, ISSUE 12. – 2023. – P. 134-143.
9. Peter B. Golden. Central Asia in World History. Oxford: Oxford University Press, 2011. – 193 p.
10. Абу Абдуллох аш-Шоший. Мўғул босқини ёхуд мусулмонларнинг қонли кечмиши. – Рабвах: Islamic Propagation office, 2012. – 369 б.
11. Алоуддин Атомалик Жувайний. Тарихи жаҳонгушо (Жаҳон фотиҳи тарихи)/ Алоуддин Атомалик Жувайний; масъул муҳаррирлар Ҳ.Болтабоев, М.Маҳмудов. – Тошкент: “MUMTOZ SO ‘Z”, 2015. – 504 б.
12. Арипова З. Ўрта асрларда Марказий Осиё – Миср муносабатлари, илмий рисола. – Тошкент: “Ўзбекистон халқаро ислом академияси”, 2021. – Б. 48.
13. Бартольд В.В. Работы по истории и филологии тюркских и монгольских народов. Сочинения. Т. IX. – Москва: Наука, 1968. – 759 с.
14. Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. Сочинения. Т. I. – Москва: Издательство восточной литературы, 1963. – 760 с.
15. Баҳодирхон А. Шажарайи турк: Ўрта ва катта мактаб ёшидаги болалар учун /Масъул муҳаррир ва сўзбоши муаллифи Б.А.Аҳмедов. – Тошкент: Чўлпон, 1990. – 192 б.
16. Буниётов З.М. Ануштегин-Хоразмшоҳлар давлати (1097-1231) / Рус тилидан Ашраф Аҳмад ва Маҳкам Маҳмуд таржимаси. – Тошкент: Ғофур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1998. – 256 б.
17. Буниятова З.М. Избранные сочинения в трех томах. Т. 3. – Баку: Элм, 1999. – 376 с.
18. Гурбуз М. Хоразмшоҳларда давлат ташкилоти, иқтисодий ва маданий ҳаёт / Н.Раҳим таржимаси. – Урганч: “Огаҳий”, 2022. – 304 б.
19. Далай Ч. Монголия в XIII-XIV веках. / Отв. ред. Б.П.Гуревич. – Москва: Наука, 1983. – 232 с.
20. Жабборов И. Буюк Хоразмшоҳлар давлати: (Қадимий тарих саҳифалари). // Масъул муҳаррир: С.К.Камолов. – Тошкент: “Шарқ”, 1999. – 144 б.
21. Жумадил А.К. Военное дело кочевников Евразии: историографический анализ: монография / А.К. Жумадил. – Алматы: Казак университету, 2014. – 272 с.
22. Зиё А. Ўзбек давлатчилиги тарихи: (Энг қадимги даврдан Россия босқинига қадар). – Тошкент: “Шарқ”, 2000. – 368 б.
23. Ибн ал-Асир. Ал-Камил фи-т-Тарих. Полный свод. Пер. с арабского языка, примечания и комментарии П.К.Булгакова, дополнения к переводу, примечаниям и комментариям, введение и указатели Ш.С.Камолиддина. – Ташкент: УЗБЕКИСТАН, 2006. – 560 с.

24. Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. Т. III. / Таржимон ва нашрга тайёрловчи С.М.Муталлибов. – Тошкент: ЎзФА нашриёти, 1960. – 250 б.
25. Мирзо Улуғбек. Тўрт улус тарихи (*Британия музейи (Англия) қўлёзмаси. инв. № ADD 26190: Тарих-и арбаъ улус*). – Тошкент: Чўлпон, 1994. – 352 б.
26. Ртвеладзе Э. Хорезм в истории государственности Узбекистана. – Ташкент: Издательство “Узбекистан файласуфлари миллий жамияти”, 2013. – 336 с.
27. Ўзбекистон тарихи. Хрестоматия. 2-жилд, 1-ктиоб. Илк ўрта асрлар манбалари. – Тошкент, 2013. – 508 б.
28. Улашова С. XIII-XV асрларда Мовароуннаҳрдаги этник жараёнлар. Монография. – Тошкент: “Firdavs-Shoh” нашриёти, 2023. – 205 б.
29. Шихобиддин Мухаммад ан-Насавий. Султон Жалолиддин Мангуберди ҳаёти. – Тошкент: Ўзбекистон; Ёзувчи, 1999. – 432 б.
30. Чингиз-хан и Чингизиды. Судьба и власть // Турсун Икрамович Султанов. – М.: АСТ: АСТ МОСКВА, 2006. – 445 с.